

Dastlabki ma'lumotlar

## 2020- yil yanvar-aprel oylarida Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda mamlakatning iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lami, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rinn tutadi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

### 2020- yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Dastlabki ma'lumotlar

**Xizmatlar sohasi**—bu korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорлиги va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

**2020- yil 1- may holatiga ko'ra,  
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va  
tashkilotlar soni

Ularning umumiyligi  
sonidagi ulushi:

O'tgan yilning shu davriga  
nisbatan o'sish sur'atlari



*Dastlabki ma'lumotlar*

2020- yil 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 9,0 mingtaga yetdi yoki ularning umumiy sonini 64,3 % ini tashkil etdi. 2019- yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 21,8 % ga oshdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 850,4 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 102,5 mlrd. so'mga oshdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,8 % ni tashkil etdi.




**Xizmatlar**-iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun, xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib, viloyat iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlarning umumiyligi hajmida Guliston shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 61,8 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

## Tuman va shaharlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % (2020- yil yanvar-aprel oylarida)




Eng katta ulush Guliston (61,8 %), Yangiyer (6,4 %) shaharlari, Sirdaryo (10,2 %) va Mirzaobod (4,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Shirin (1,1 %) shahri, Oqoltin (1,9 %), Sardoba (2,3 %), Guliston va Sayxunobod (2,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Dastlabki ma'lumotlar

**Ma'lumot uchun:** 2019- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida Guliston shahrining ulushi 51,6 % ni tashkil etgan.  
**Shirin shahrining ulushi esa eng past - 1,3 % ni ko'rsatgan.**

**Tuman va shaharlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da  
(2020- yil yanvar-aprel oylarida)**



Ushbu davrda yuqori o'sish sur'atlari Guliston (121,8 %), Yangiyer (87,7 %) shaharlari, Mirzaobod (93,0 %) va Xovos (87,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Nisbatan past o'sish sur'atlari Sayxunobod (43,9 %), Sardoba (75,3 %), Boyovut (78,0 %) va Oqoltin (84,8 %) tumanlarida kuzatildi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda, viloyatning har bir iqtisodiy tumani va shaharlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishga bog'liqdir.

Ko'rileyotgan davrda resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Guliston shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 139,4 mlrd. so'mga oshdi va 525,4 mlrd. so'mga yetdi.

**Tuman va shaharlar bo'yicha ko'rsatilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020- yil yanvar-aprel oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>850,4</b>	<b>101,8</b>	<b>1002,8</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston sh.	525,4	121,8	5792,5
Shirin sh.	9,2	86,4	492,9
Yangiyer sh.	54,0	87,7	1241,9
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	29,0	78,0	223,8
Guliston	22,3	86,8	307,5
Mirzaobod	37,3	93,0	507,7
Oqoltin	16,2	84,8	312,1
Sardoba	20,0	75,3	302,2
Sayxunobod	22,5	43,9	291,0
Sirdaryo	86,8	86,4	676,2
Xovos	27,7	87,4	289,0

*Dastlabki ma'lumotlar*

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Sirdaryo (86,8 mlrd. so'm), Mirzaobod (37,3 mlrd. so'm), Boyovut (29,0 mlrd. so'm) tumanlari va Yangiyer (54,0 mlrd. so'm) shahrida qayd etildi.

Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va an'anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari hajmini oshishiga olib keladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining o'sishidagi asosiy omil moliyaviy xizmatlar 287,6 mlrd. so'mni (ko'rsatilgan xizmatlar jami hajmiga nisbatan ulushi 33,8 %), savdo xizmatlari 214,1 mlrd. so'mni (jami hajmiga nisbatan ulushi 25,2 %), transport xizmatlari 122,2 mlrd. so'mni (jami hajmiga nisbatan ulushi 14,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 55,6 mlrd. so'mni (jami hajmiga nisbatan ulushi 6,5 %), ta'lim sohasidagi xizmatlarning 35,0 mlrd. so'mni (jami hajmiga nisbatan ulushi 4,1 %) tashkil etdi.


Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor munosabatlari, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda.

*Dastlabki ma'lumotlar*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020- yil yanvar-aprel oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>850,4</b>	<b>101,8</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	55,6	116,3
Moliyaviy xizmatlar	287,6	163,3
Transport xizmatlari	122,2	85,7
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>115,2</i>	<i>87,5</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	14,4	76,3
Savdo xizmatlari	214,1	81,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	17,8	78,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	35,0	81,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	12,5	95,1
Ijara xizmatlari	15,7	93,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	19,8	85,1
Shaxsiy xizmatlar	17,0	78,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	12,6	75,0
Boshqa xizmatlar	26,1	78,4

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining jamiga nisbatan ulushi, %  
(2020- yil yanvar-aprel oylarida)**



Eng yuqori ulush moliaviy xizmatlar (33,8 %), savdo xizmatlari (25,2 %), transport xizmatlari (14,4 %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (6,5 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'limgan ulush me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,5 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (1,7 %), Ijara xizmatlari (1,8 %) va shaxsiy xizmatlarda (2,0 %) kuzatildi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'r'in tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


**Savdo** – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 25,2 % ni tashkil etib, bu 214,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

### Savdo xizmatlari tarkibi, % (2020- yil yanvar-aprel oylarida)

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismiga aniqrog'i 73,8 % ga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 20,8 % ga yetdi.



*Dastlabki ma'lumotlar*

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosiga bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar** – bu xizmatlarga banklarning moliyaviy vositachilik xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (Internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachilik xizmatlari va boshqa moliyaviy xizmatlar kiradi.

### **Moliyaviy xizmatlar (2020- yil yanvar-aprel oylarida)**

2020- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 287,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,6 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 63,3 % ni tashkil etdi.



*Dastlabki ma'lumotlar*

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yil yanvar-aprel oylarida)

Moliyaviy xizmatlar umumiylajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 94,2 % ni tashkil etadi. Joriy davrda sug'urta xizmatlarning ulushi 4,5 % oralig'ida qayd etildi.



Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiylajmaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 1,3 % ni tashkil etadi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Ma'lumki, fuqarolarni sifatli va arzon ta'lim bilan ta'minlash sezilarli darajada jamiyatning rivojlanishini va uning kelajagini belgilovchi vazifadir.

Mamlakatimizda bu soha nafaqat davlat siyosatining eng muhim va hal qiluvchi yo'nalishlaridan biri sifatida qaralibgina qolmay, balki ulkan yutuqlarni ham namoyish etmoqda.

Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod metodik materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2020- yil yanvar-aprel oylarida)



2020- yil yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 35,0 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 4,1 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 81,9 % ni tashkil etdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*


Bugun respublikaning barcha hududlarida ixtisoslashtirilgan ilmiy va amaliy tibbiyot markazlarida kardiologiya, jarrohlik, ko'z mikroxirurgiyasi, urologiya, terapiya va tibbiy reabilitatsiya, endokrinologiya, pulmonologiya va ftiziatriya, akusherlik va ginekologiya, pediatriya va boshqa sohalarda yuqori sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi - bu sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, tibbiy haydovchilar komissiyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati.

### **Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yil yanvar-aprel oylarida)**

2020- yil yanvar-aprel oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 0,3 mlrd. so'mga oshdi va 12,5 mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlar umumiyligi hajmida ularning ulushi 1,5 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 95,1 % ni tashkil etdi.




*Dastlabki ma'lumotlar*

Sirdaryo viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining doimiy o'sishi kuzatilmogda. 2020- yil yanvar-aprel oylarida 1002,8 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,4 ming so'mga oshdi va o'sish sur'ati 99,8 % qayd etildi.

Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan eng kichik hajm Boyovut (223,8 ming so'm), Sayxunobod (291,0 ming so'm) va Xovos (289,0 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

2019- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, 2020- yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston shahrida (119,6 %), Mirzaobod tumanida (90,3 %) va Yangiyer shahrida (85,8 %) qayd etildi.

### 2020- yil yanvar-aprel oylarida tuman va shaharlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar





*Dastlabki ma'lumotlar*

Kelajakda xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish, samarali bandlikni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirishning dolzARB masalasidir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi hal qiluvchi omil, aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi hisoblanadi.

***Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi***

***Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi***

**Tel: (67) 236-86-36**